

**Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги**

**Республика таълим маркази**

**Айрим фанлар чуқур ўрганиладиган давлат  
ихтисослаштирилган умумтаълим  
муассасаларининг 3-4-синфлари учун  
табиийёт фанидан 0,5 соатга қисқартирилган**

**Ўқув дастури**

Тузувчи муаллиф: А. Баҳромов

**ТОШКЕНТ- 2015 йил**

# **GUMANITAR FANLARGA IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR UCHUN TABIATSHUSLIK O'QUV DASTURI (3 – 4-sinflar)**

## **Tushuntirish xati**

Tabiatshunoslik fani 3–4-sinflarda o'rganiladi. Tabiatshunoslik tabiiy-ilmiy o'quv fanlari sirasiga kiradi. Mazkur fan tabiat, tabiiy boyliklardan foydalanish va asrash bo'yicha odamlarining mehnati haqidagi sodda bilimlar, shuningdek, o'quvchilarning amaliy o'quv faoliyati asosida ularda tabiatni chuqur anglash, o'z yurtiga muhabbat uyg'otishni shakllantirish jarayonini davom ettirishga qaratilgan.

Tabiatshunoslikni o'qitish bolalarda butun Yer yuzi tabiatini asrab-avaylash hissini shakllantiradi. O'quvchilar tabiatni asrash yuzasidan olib borilayotgan amaliy ishlar yuzasidan alohida ko'nikmaga ega bo'ladilar. O'quvchilarga o'lkamizning tabiat hodisalari va undagi jismlar haqida boshlang'ich bilimlar berish; sodda misollar bilan tabiat, shuningdek, inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ko'rsatish; tabiatdan foydalanish va uni asrash bo'yicha inson faoliyati bilan tanishtirish; tabiatni asrash uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni hosil qilish va shu asosda tabiatga nisbatan maqbul dunyoqarashni shakllantirish; o'quvchilarni ekologik, etik, estetik, mehnat, baynalmilal, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tabiatshunoslik kursini o'qitishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tabiat va jamiyat hayotini ko'p yoqlama bilish qator aloqalarni tushunishga va atrof-muhitga shaxsiy munosabatni shakllantirishga imkon beradi.

Tabiatshunoslik fanini o'rgatish jarayonida o'qituvchi quyidagi vazifalarga e'tibor berishi lozim:

1. Jonli va jonsiz tabiat va maktab atrofidagi, viloyatdagi, o'z yurtidagi kishilarning mehnati haqidagi tasavvur va tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish;
2. Tabiatdagi va kishilar mehnatidagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatish;
3. Oddiy ilmiy dunyoqarashni shakllantirish maqsadida tabiatdagi voqelikni bolalar bilan doimiy kuzatib borish;
4. Aniq misollar asosida ashyolar va tabiat hodisalari o'rtasidagi o'zaro aloqani ochib berish, tabiatning odamlar mehnatiga ta'sirini ko'rsatish;
5. Tabiatni asrashning amaliyoti haqidagi bilimni asrash yuzasidan o'tkazilayotgan tadbirlar bilan tanishtirish;
6. Sanitariya-gigiyena haqidagi bilimlarni shakllantirishda davom etish, shaxsiy va jamoa gigiyenasi ko'nikmalarini taraqqiy ettirish.

Fan darslari, tajribalar, sayohatlar, amaliyot ko'rinishidagi darsdan tashqari ishlar (dalada o'tkaziladigan amaliyotlar) o'quv mashg'ulotlarining asosiy shakli hisoblanadi. Tabiatshunoslikni o'qitishda shu fanga xos bo'lgan tabiatning o'zidagi, sinfdagi, jonli tabiat burchagidagi ashyolar va voqelikni kuzatish, tabiiy obyektlar va ularning tasvirlarini darsda namoyish qilish, o'quv eksperimentini o'tkazish yetakchi o'rin tutadi.

"Kundalik kuzatish daftari" asosida kuzatish olib boriladi. Kuzatish olib borish bo'yicha vazifalar jonli va jonsiz tabiatni o'rab turgan obyektlar, tabiatdagi organizmlarning o'zaro aloqasi haqidagi umumiy tushunchalarni shakllantiradi. Uzviylik o'lkashunoslik, mavsumi yillikni o'qitishning muhim prinsiplari hisoblanadi. O'rganish uchun tabiat ob'ekti va voqeligini mahalliy (tuman, viloyat) sharoitni hisobga olgan holda o'qitishning o'zi tanlaydi. O'qituvchi darslarni almashtirishi va o'rnini o'zgartirishi mumkin, negaki, tabiatdagi

o'zgarishlarni o'rganish tabiatda shu holatlar yuz bergan davrga mos kelishi kerak. Agar bunday mos kelish bo'lmasa, darslar o'zgartirilishi yoki tabiatshunoslik boshqa darslar (o'qish) bilan almashtirishi mumkin, albatta keyin uning o'rnini to'ldirish kerak.

Tabiatshunoslik darslari o'quvchilarda kishilar mehnatini hurmat qilishni tarbiyalash, ularda tabiatdagi o'quv va ijtimoiy foydali, amaliy ish uchun zarur bo'lgan atrof olam bilan tanishtirish bo'yicha darslarda paydo bo'ladigan mehnat malakalari va ko'nikmalarini shakllantirish davom ettiriladi.

Gumanitar fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablar yoki gumanitar fanlar chuqurlashtirib o'qitiladigan sinflar uchun 3-sinf "Tabiatshunoslik" dasturi quyidagi bo'limlardan iborat: "Kirish", "Tabiatda suv va havo", "Foydali qazilmalar", "O'simliklar dunyosi", "Hayvonot dunyosi", "Tabiat va inson salomatligi", "Tabiatni muhofaza qilish".

Dastlabki mavzu ona yurt tabiatini yoritib beradi. Shuning uchun 3-sinfda tabiatdagi havo, suv, foydali qazilmalar va tuproq singari jonsiz tabiatni o'rganishdan so'ng atrofda o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganish zarur, chunki 3-4-sinfda o'rganilgan tabiatshunoslik materialini o'rganishdagi mantiqiy izchillikni ta'minlaydi.

"Bizni o'rab turgan havo", "Suvning xususiyatlari", "Tabiatda suv", "Yer osti boyliklari", "Tuproq" bo'limlarini o'rganish jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor qaratish zarur: tabiat va inson hayotida suv, havo, tuproq qanday o'rin tutadi; foydali qazilmalar nima uchun kerak; suv, havo, tuproqni qanday asrash lozim.

"O'simliklar dunyosi" va "Hayvonot dunyosi" bo'limlari o'quvchilarning mavsumiy o'zgarish haqidagi bilimlarini chuqurlashtirishni va bir paytning o'zida o'simlik va hayvonot dunyosi bilan kengroq tanishtirishni ko'zda tutadi. Paxta, sholi, poliz ekinlari va bog' mevalarini terishning boshlanishi kabi qishloq xo'jalik ishlari madaniy o'simliklar bilan bog'liq. O'quv yili boshidan o'z yurtining o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganish ekskursiya va Yer tajriba uchastkasidagi amaliy ish paytidagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida (maktab joylashgan yerga qarab) olib borilishi lozim, Amaliyotsiz o'quvchilar bilimni ongli va mustahkam egallay olmaydi.

Park, bog', dala yoki suv havzasi bilan tanishish chogida maktab joylashgan joyda mos keladigani ob'yekt tanlab olinadi. Tanlab olingan muhitda aniq misollar asosida tegishli o'simliklarning turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, boshqa organizmlar bilan aloqasi, ularga insonning ta'siri o'rganiladi. Masalan, park uchun bir xildagi o'simliklar, dala uchun esa jonsiz tabiat, mavsum xususiyatlari bilan bog'liq turli sharoitlar ta'sir etgan boshqa o'simliklardir.

O'quvchilarni "Tabiat va inson salomatligi" bo'limi inson tabiatning bir bo'lagi ekanligi haqidagi fikrni shakllantirish, asosiy organlarning joylashuvi, ular bajaradigan vazifalar, ularga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kabi oddiy ma'lumotlarda to'xtalanadi. Har bir bola o'z organizmi, uning rivoji va sog'ligini saqlash uchun ularni bilishi lozimligi haqida umumiy bilimga ega bo'lishi kerak.

Shaxsiy va ijtimoiy gigiyena masalalariga va ayniqsa, bolalar o'z sog'liklarini saqlashi va mustahkamlashi uchun zarur bo'lgan tadbirlarga alohida e'tibor bermoqlari lozim.

"Tabiatni muhofaza qilish" bo'limida inson va tabiat orasidagi munosabat, "O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi". «Qizil kitob»ga kiritilgan o'simliklar va hayvonlar, ularni asrash kabilarga alohida e'tibor berilishi zarur.

Gumanitar fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablar yoki gumanitar fanlar chuqurlashtirib o'qitiladigan sinflarning 4-sinfida "Tabiatshunoslik" darslarida quyidagi bo'limlar o'rganiladi: "Yer – Quyosh sistemasidagi sayyora", "Yer yuzasi tabiatining xilma-xilligi", "Vatanimiz bo'ylab sayohat".

“Yer – Quyosh sistemasidagi sayyora” bo‘limi o‘z ichiga “Yulduzlar”, “Quyosh – eng yaqin yulduz”, “Quyosh sistemasidagi sayyoralar”, “Asteroidlar”, “Kometalar”, “Meteorlar”, “Globus – Yerning kichraytirgan modeli”, “Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi. Kun bilan tun”, “Yil fasllarining almashinishi”, “Oy – Yerning tabiiy yo‘ldoshi” kabi mavzularni olgan. Ushbu mavzularni o‘tishda yulduzlar, sayyoralar, asteroidlar, kometalar, meteorlar haqida tushunchaga ega bo‘lishi bilan birga Yer sharining tuzilishi, materik va okeanlarning joylashuvi, O‘zbekistonning globus va yarimshar xaritalarida joylashgan o‘rni bilan tanishiladi.

O‘quvchilar yer yuzasining shakllari (tog‘, tekislik va suvli joylar) haqidagi oddiy tushunchalarni 2-sinfda atrofimizdagi olam fanidan olgan edi, aniq tushunchalar esa 4-sinfda shakllantiriladi. Ta‘limning ko‘rgazmali vositalari va ekran qo‘llanmalaridan foydalanish yo‘li bilan bu tasavvur va tushunchalar mustahkamlanadi. O‘quvchilar tepalikni tog‘dan, tekislikni o‘rmon-qirlardan ajrata olishlari yer yuzasi shaklini o‘rganish, solishtirish asosida olib borilishi lozim.

O‘z yurtini o‘rganib, bolalar cho‘l, vodiy zonasida yashashlarini bilib oladi. Cho‘l tabiati va odamlarning undagi mehnati o‘quvchilar kundalik hayotida ko‘radigan holatdir. Shuning uchun o‘quvchilarda o‘z joyi tabiati haqida to‘plangan bilimlarni umumlashtirish va sistemalashtirish zarur, shundan keyin o‘quvchilarni boshqa tabiat mintaqalari sari yetaklash mumkin. 4-sinf o‘quvchilariga "mintaqa" tushunchasi berilmasligi kerak. Tabiat o‘quvchilarga qiyosiy planda tanishtiriladi, bunda jonli va jonsiz tabiatning omillari, insonlar mehnatiga ta’siri ko‘rsatiladi. Tabiatni janubdan shimolga qarab o‘rganish dasturning o‘lkashunoslik asosi sifatidagi rolini tushunish imkonini beradi: o‘quvchilar o‘z yurtiga boshqa tabiat sharoitlari o‘rtasidagi ahamiyati nuqtai nazaridan qarashni o‘rganadi.

"Vatanimiz bo‘ylab sayohat" bo‘limi “Vatanimiz chegaralari”, “O‘zbekistonning ma’muriy bo‘linishi”, “Farg‘ona vodiysining tabiati”, “Toshkent shahri va viloyatining tabiati”, “Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlarining tabiati”, “Samarqand va Buxoro viloyatlarining tabiati”, “Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tabiati”, “Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatining tabiati”, “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining tabiiy boyliklarni muhofaza qilish sohasida olib borayotgan chora va tadbirlari” mavzularidan tashkil topgan va shu bo‘lim tabiatshunoslik fanini yakunlaydi, o‘quvchilar olgan bilimlarini umumlashtiradi. Birinchi navbatda tabiatga ehtiyotlik bilan munosabatda bo‘lishda insonning roli ko‘rsatiladi. Inson yerni, tuproqni, o‘simliklarni, hayvonlarni, suv va havoni asrashi lozim ekanligi eslatiladi. O‘quvchilar O‘zbekiston Respublikasining tabiatini asrash bo‘yicha qonunchilik hujjatlari bilan tanishadilar.

Gumanitar fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablarda “Tabiatshunoslik” o‘quv fanini o‘rganishga 3-sinda ham, 4-sinfda ham 17 soatdan, ya’ni oddiy maktablardagiga nisbatan ikki baravar kam dars vaqti ajratilgan. Lekin o‘quv dasturi materiallarida farq kamdir. Shuning uchun gumanitar fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablarda tabiatshunoslik darslarida qisqacha tarsda bo‘lsa ham dasturdagi barcha materiallar o‘tiladi. Garchi amaldagi 3- va 4-sinf “Tabiatshunoslik” darsliklarining har biri 34 soatli dars vaqtiga mo‘ljallangan bo‘lsa-da, berilgan 17 soatli dars vaqtida o‘quvchilar darslikdagi barcha mavzularni o‘qib chiqishga harakat qilishlari kerak. O‘qituvchi bir darsda darslikdan ikki darsga mo‘ljallangan mavzularni qisqacha tarzda bo‘lsa ham tushuntirishga harakat qilishi lozim. Bunday sinflarda “Tabiatshunoslik” darsi ikki haftada bir marta bo‘ladi. Shuni hisobga olib, har bir “Tabiatshunoslik” darsida o‘quvchilarga ikki hafta davomida ikkitadan mavzuni o‘qish va o‘rganish uyga vazifa sifatida beriladi.

**O‘QUV DASTURI**  
**3-sinf**  
**(17 soat, haftasiga 0,5 soatdan)**

**Kirish (1 soat)**

Tabiatshunoslik nimani o‘rganadi? Tabiat. Jonli va jonsiz tabiat. Tabiat hodisalari.

**Tabiatda suv va havo (2 soat)**

Suv – hayot manbayi. Suvning ahamiyati. Suvni muhofaza qilish va tejash. Tabiatda havo. Havoning ahamiyati. Shamol qanday paydo bo‘ladi?

**Foydali qazilmalar (3 soat)**

Foydali qazilma nima? Yoqilg‘i sifatida ishlatiladigan foydali qazilmalar. Qora va rangli metallar. Qurilishda foydalaniladigan qazilma boyliklar. Foydali qazilmalardan oqilona foydalanish.

**O‘simliklar dunyosi (4 soat)**

Tuproqning tarkibi, unumdorligi va ahamiyati.

Tabiiy o‘simliklar. O‘tlar. Butalar. Daraxtlar.

Madaniy o‘simliklar. G‘o‘za, bug‘doy, kartoshka, sabzavotlar, poliz ekinlari, mevali daraxtlar, tok.

Manzarali o‘simliklar. Manzarali daraxt va butalar. Gullar, ularni ko‘paytirish va parvarish qilish.

**Hayvonot dunyosi (3 soat)**

Yovvoyi hayvonlar. Yirtqich va o‘txo‘r hayvonlar, ularning hayot kechirishi.

Hasharotlar. Zararkunanda va foydali hasharotlar. Qushlar va ularning tabiatdagi ahamiyati.

Uy hayvonlari va ularni parvarish qilish.

**Tabiat va inson salomatligi (2 soat)**

Odamning tuzilishi. Odam tanasi. Teri, skelet va muskullar, ularning vazifalari. Yurak va uning vazifasi..

Odam miyasi. Ovqat qanday hazm qilinadi? Ovqatlar va ovqatlanish qoidalari. O‘pka va uning vazifasi.

**Tabiatni muhofaza qilish (1 soat)**

Tabiat va inson. “O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi». «Qizil kitob»ga kiritilgan o‘simliklar va hayvonlar, ularni asrash.

**O‘quv yili davomida o‘tilganlarni takrorlash (1 soat)**

**4-sinf**  
**(17 soat, haftasiga 0,5 soatdan)**

**Yer – Quyosh sistemasidagi sayyora (4 soat)**

Yulduzlar. Quyosh – eng yaqin yulduz. Quyosh sistemasidagi sayyoralar. Kometalar va meteorlar.

Oy – Yerning tabiiy yoʻldoshi.

Yerning tuzilishi va oʻlchami. Globus – Yerning modeli. Shimoliy qutb, Janubiy qutb, ekvator.

Yerning oʻz oʻqi atrofida aylanishi: kun va tun. Yerning Quyosh atrofida aylanishi: yil fasllarining davriy almashinishi.

**Yer yuzasi tabiatining xilma-xilligi (8 soat)**

Ufq va uning tomonlari. Kompas yordamida ufq tomonlarini aniqlash.

Yarimsharlar xaritasi. Oʻzbekiston tabiiy xaritasi.

Yer yuzasining asosiy shakllari: togʻ, tekislik va okeanlar. Oʻzbekiston hududidagi togʻ va tekisliklarning tabiiy xaritadagi tasviri.

Oʻlkamiz hududidagi asosiy daryolar, koʻllar, kanallar, suv omborari.

Oʻrmon tabiati. Oʻlkamizdagi oʻrmonlar. Oʻrmonlardagi oʻsimlik va hayvonot dunyosi.

Choʻl tabiati. Oʻzbekiston hududidagi choʻllar. Choʻllardagi oʻsimlik va hayvonot dunyosi.

Togʻ tabiati. Oʻlkamizdagi togʻlar. Togʻlardagi oʻsimlik va hayvonot dunyosi.

Adir tabiati. Oʻzbekiston adirlaridagi oʻsimlik va hayvonot dunyosi. Qoʻriqxonalar.

**Vatanimiz boʻylab sayohat (4 soat)**

Oʻzbekiston Respublikasining maʼmuriy xaritasi. Toshkent viloyati va shahrining tabiiy sharoiti, aholisi.

Fargʻona vodiysining tabiati. Andijon, Fargʻona va Namangan viloyatlarining tabiiy sharoiti, aholisi. Sirdaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlarining tabiiy sharoiti, aholisi.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tabiiy sharoiti, aholisi. Navoiy va Buxoro viloyatlarining tabiiy sharoiti, aholisi, viloyatlar markazlaridagi diqqatga sazovor joylari.

Xorazm viloyati va Qoraqalpogʻiston Respublikasining tabiiy sharoiti, aholisi. Oʻzbekiston Respublikasi Hukumatining tabiiy boyliklarni muhofaza qilish sohasida olib borayotgan chora va tadbirlari.

**Oʻquv yili davomida oʻtilganlarni takrorlash (1 soat)**